

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.N.Nargiza	
Kognitiv tilshunoslik va “Makon” konseptining o’rganilishi.....	244
Э.Ж.Зиёхиддинова	
Духовные поиски и восточные символы в повести Тумура Пулатова «Окликни меня в лесу»	248
O.O.Xoshimova	
O‘zbek va ingliz tillarida zoonimik frazeologik birliklarining tuzulish xususiyatlari tahlili.....	252
N.X.Sharafutdinova, A.M.Rasulova	
O‘zbek tilida o‘zlashgan teonimlar tavsifi va tasnifi	256

ILMIY AXBOROT

Ш.М.Артикова	
Сравнительный анализ стратегий вежливости в русском и английском языках: речевой этикет, просьбы, отказы и извинения.....	261
F.B.Abduraximova, A.O.Oxunov	
The concept of internal form in word formation: linguistic, etymological, and cognitive perspectives.....	265
M.A.Abdulkhakimova	
The role of phraseology competence in english proficiency exams	270



UO'K: 811.512.1'373.21

O'ZBEK TILIDA O'ZLASHGAN TEONIMLAR TAVSIFI VA TASNIFI**ОПИСАНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕОНИМОВ****DESCRIPTION AND CLASSIFICATION OF BORROWED THEONYMS****Sharafutdinova Nilufar Xursandovna¹** ¹Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Rasulova Azizaxon Muydinovna²** ²Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

Maqolada O'rta Osiyoga islom dini kirib kelishi bilan o'zbek tiliga o'zlashgan bir qator teonimlarning turli nutq uslublarda qo'llanilish darajasi, shuningdek, badiiy uslubda faol qo'llanuvchi Rab, Haq, Xoliq, Rahmon, Qahhor, Kirdikor, Hay, Iloh, Beniyo, Jabbor, Ma'bud kabi teonimlar tasnifi va tavsifi berilgan.

Аннотация

В статье рассмотрены уровень употребления ряда теонимов, которые были приняты в узбекский язык с внедрением ислама в Центральную Азию, в разных речевых стилях, а также приводится классификация и описание таких теонимов, как Раб, Хак, Халик, Рахман, Каххор, Кирдикор, Хай, Илох, Бениёз, которые активно используются в художественном стиле.

Abstarct

The article examines the level of use of a number of theonyms that were adopted into the Uzbek language with the introduction of Islam into Central Asia, in different speech styles, and also provides a classification and description of such theonyms as Rab, Hak, Khalik, Rahman, Kakhhor, Kirdikor, Hay, Iloh, Benyoz, which are actively used in the artistic style.

Kalit so'zlar: Din, islom, o'zlashgan qatlam, Alloh, badiiy uslub, Rab, Haq, Xoliq, Rahmon, Qahhor, Kirdikor, Hay, Iloh, Beniyo, Jabbor.

Ключевые слова: Религия, Ислам, заимствованный слой, Аллах, художественный стиль, Раб, Хак, Халик, Рахман, Каххар, Кирдикор, Хай, Илох, Бенияз, Джаббар.

Key words: Religion, Islam, adopted layer, Allah, artistic style, Rab, Haq, Khaliq, Rahman, Qahhar, Kirdikor, Hay, Iloh, Beniyaz, Jabbar.

KIRISH

Dunyodagi har qanday tilda, u til katta yoki kichikligidan, taraqqiy etgan yoki taraqqiy etmaganligidan qat'iy nazar, diniy tushuncha ifodalovchi bir qator so'zlar mavjud bo'ladi. Chunki din, diniy e'tiqod, tabiiy tuyg'u sifatida, juda qadimdan, tabiatga munosabat bildirishning, uni anglashga urinishining ilk davridan boshlanadi. Bu tabiiy tuyg'u tufayli diniy va e'tiqodiy tasavvur hamda tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlar shu davrda paydo bo'lgan. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham diniy va ilohiy tushunchalarni ifodalovchi o'z va o'zlashgan qatlamga mansub so'zlar juda qadimdan boshlab qo'llanib kelingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'rta Osiyoga islom dini kirib kelishi munosabati bilan, o'zbek tiliga arab tilidan bir qator teonimlar kirib keldi. *Alloh*, *Rab* kabi uzual teonimlar arab tilidan o'zlashdi. Bularning o'zlashishida diniy adabiyotlar va islomiy rituallar asosiy rol o'ynadi. Til lug'at tarkibidagi eng harakatchan teonimlar sifatida og'zaki so'zlashuv nutqida ham, yozma nutq shaklida ham *Alloh* faol qo'llana boshladi. A.Oripovning "Jannatga yo'l" dramatik dostonida eng faol qo'llanuvchi o'zlashgan teonim ham Allohdir. U doston davomida o'n martadan ortiq ishlatiladi. Sodda shakl tarzida ham, egalik qo'shimchasini olgan shaklda ham qo'llanadi.

Tamg'a bosib qo'ygan ekan senga Ollohim.

Sening joying arosatda. Ko'ngling bo'lsin to'q.

TILSHUNOSLIK

Bandasini jannat yoki do'zaxga tayin etish faqat Olloh qo'lida. Berganini olish ham uning ixtiyorida.

Balki olgan sal barvaqtroq joningni Olloh,
Gunohlarni qilmagansan balki ulgurib.
Shoshmay tur, gap bor.
Sen sho'irsan, senga Olloh yorug' nur berdi ...

"Olloh" teonimi kundalik iste'molda har kuni bir necha marta talaffuz etiladi. Chunki har bir duoning yakuni shu so'zning "akbar" so'zi bilan qo'shiluvdan iborat bo'ladi.

"Sohibqiron" she'riy dramasida o'nga yaqin teonimlar ichida eng ko'p takrorlanuvchi teonim sifatida Alloh yigirma besh o'rinda tilga olinadi. Yanching uni!

Alloh o'zi madadkor bo'lgay!
Bir o'rinda egalik qo'shimchasini olgan so'zshakl sifatida qo'llaydi.
Allohimning iroda-yu inoyati-la
Yer yuzini teng yarmini qo'lga kiritdim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek tiliga o'zlashgan Rab, Haq teonimlari faol bo'lmasa-da, badiiy adabiyot namunalarida tilga olinadi.

Faqat ayriliqdan asragin, yo Rabb,
Do'stu yoronlardan qilmagin judo.
Agar hayot pardasini ko'tarib boqsang,
Orasida ikki holat ko'ringay ro'y-rost:

Haq so'zi arab tilidan o'zlashtirilgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham, "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da ham uning teonimik ma'nosi ko'rsatilmaydi. Keyingi lug'atda "haq amri", "haq yo'li" barqaror birikmalari izohlanar ekan, ular "xudo buyrug'i", "haq yo'li tariqi" tarzida izohlanadi va "Ul ishlar haq amri bila anga taalluq tutubtur", "Podshohi islom panoh chun ko'rdilarkim, alar borasida kuch bo'lg'udekdur, taxqiq bildilarkim, haq yo'li va ibodatining sheftasi bo'lubturlar ..." jumalari bilan tasdiqlovchi misollar beriladi. Birinchi izohda haq so'zi xudo so'zi bilan almashtirilgan, demak, haq amri bilan, ya'ni Xudo izni bilan amalini topishi anglashiladi. Ikkinchi izoh tasdiqlovchi jumlasida "ibodat" so'zi ham qo'llanadi. Ma'lumki, ibodat faqat Yaratgangagina bo'ladi. Bundan ham anglashiladiki, Haq uzual teonimdir. Haq so'zining teonim sifatida uzualligi yana quyidagilar bilan izohlanadi: birinchidan, haq so'zi teonimik ma'noda Olloh, Xudo teonimlari kabi stilistik bo'yoqlardan xoli, neytral tarzda qo'llanishi ham mumkin; ikkinchidan, o'z ma'nosida ekspressiv-emotsional ottenkalar kuzatilmaydi; uchinchidan, obrazlilik yo'q, yolg'iz o'zi nominal ma'noda Yaratguvchi tushunchasini ifodalaydi; to'rtinchidan, ramziylik yo'q, u Yaratguvchining ramzi emas, uning o'zidir. Shu tarzda qo'llash Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni muqaddimasining to'rtinchi qismida ham kuzatiladi.

Har ne istab hayyi mutloqdin topib,
Haq tilab, haqdin tilab, haqdin topib.

Baytning birinchi misrasida "hayyi mutloq" iborasi qo'llangan. M.Umarxo'jayevning "Diniy atamalar va iboralar" ommabop qisqacha izohli lug'atida *Al-hay* – Alloh taoloning go'zal ismlarida biri. Azaliy va abadiy tirikdir tarzida izohlanadi. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da ham "hay(y)" so'zi tirik, jonli ma'nolarida izohlanadi. Shuningdek, lug'atda "hayyi dodgar" arz-dodga yetuvchi, adolatli; "hayyi loyamat" o'lmaslik, doimiy, o'lmas; "hayyi mujib" sababchi, amalga oshiruvchi; "hayyi qadir" qudratli, hamisha tirik ma'nolarida izohlanadi. Barqarorlashgan iboralar izohidan anglashilib turibdiki, ularning barchasida Yaratguvchiga xos sifatlar berilgan. Chunki arz-dodga yetuvchi, adolatli ham, o'lmas, doimiy, o'lmaslik ham, amalga oshiruvchi ham, qudratli, hamisha tirik ham faqat uning o'zidir. Mutlaq, mutaqlik ham Yaratguvchining o'zi. Biroq lug'atda shu iboralar qatoriga "hayyi mutlaq" iborasi kiritilmagan. Ta'kidlash mumkinki, o'zidan boshqa hech narsa, hech kim mutlaq emas. Baytda ifodalanganidek, istalgan har ne hayyi mutlaqdan topiladi.

Baytning ikkinchi misrasida "hayyi mutlaq" haq so'zi bilan almashtiriladi, uning o'rnida haq so'zi teonimik ma'noda qo'llanadi. Agar birinchi misrada "hayy" mutloqdan topilgan bo'lsa, ikkinchi misrada "haqdin" topiladi. Bu o'rinda Haq uzual teonimdir. "Haqdan tilab" birikmasida ham Haq uzual teonim. Misraning boshida kelgan "haq tilab" birikmasidagi haq teonim emas, uni "haqiqat" so'zi bilan almashtirish mumkin.

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida o‘zining teonimik ma’nosida faol qo‘llanadigan bu so‘z muqaddimaning birinchi qismida ikki o‘rinda takrorlanadi.

Kimki haq ollinda toat qilmog‘on,
Kasbi oyini saodat qilmag‘on.
Bu saodatlarga topqon dastras,
Urmag‘on haq yodidin ayru nafas.

Haq teonimi hozirgi o‘zbek tilida ham faol qo‘llanadi. Al-haq – Alloh taoloning go‘zal, muqaddas ismlaridan biri. Haqiqatan mavjud zot.

Bandani xillamoq nokasning ishi,
Atoyi Haq erur tus bilan zabon.
Rasululloh demish: – Haqning qoshida,
Taroq tishlaridek barchamiz tengmiz.

Haq sevgay o‘ziga yor bandalarni,
Dilida iymoni bor bandalarni,
Takabbur boshlarni pastroqqa egga,
Yuksakka ko‘targay xor bandalarni.

A.Oripov

Arab tilidan o‘zlashgan uzual teonimlardan yana biri *Xoliq* teonimidir. O‘zbek xalq og‘zaki namunalarida ham qo‘llanishiga qaramasdan bu so‘z, uzual teonim sifatida, Xudo, Olloh, Parvardigor teonimlari kabi so‘zlashuv tilida barqarorlashmagan. Masalan, o‘zbek xalq maqollari matnlaridan birida Yaratguvchi ma’nosida keladi.

Yaxshilik qil, daryoga tashla,
Daryo bilmasa, baliq bilur,
Baliq bilmasa, Xoliq bilur.

Keltirilgan maqol matni mazmunidan anglashiladiki, xoliqlik Yaratguvchining sifatlaridan biri sifatida otlashadi va uning nomlaridan birini ifodalaydi. Uzual teonimlar tizimidan o‘rin oladi, qo‘llanish doirasi kengayadi. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida bu teonimik nom ot kesim vazifasida kelganda xalqoq shaklida ham qo‘llanadi.

Ulki maxluqot xalloqidur ul,
Ondin o‘zga foniyu boqiydur ul.

Hozirgi o‘zbek tilining yozma nutq shaklida, xususan, badiiy adabiyotda bu so‘z teonimik ma’nosi bilan faol qo‘llanadi.

Balki sen tutgaysan Iblisning qo‘lin,
Yaratgan Xoliqqa barchasi ayon.

A.Oripov

Xoliq teonimi yozma adabiyotda ikki fonetik variantda qo‘llanadi: *Xoliq* – *Xalloq*. Al-*Xoliq* – Alloh taoloning go‘zal, muqaddas ismlaridan biri. Yaratuvchi, vujudga keltiruvchi. Koinotni yaratgan va bor etgan tarzida izohlanadi.

– Lekin bunday manzarani his etgani choq,
Nogahoniy qo‘rqinch bilan titrab ketardi.
Osiymanmi? Yaratding-ku meni ham, Xalloq,
Deya tunlar Tangriga jim sukut etardi.

A.Oripov

Iloh arab tilidan o‘zlashgan teonimlardan biri. U so‘zlashuv tilida ham, yozma nutqda ham parallel qo‘llanadi – har ikki nutq shakliga xoslangan. “Qutadg‘u bilik”da qo‘llanishidan kelib chiqilsa, bu teonim tarixan ham iste’molda bo‘lgan.

Ilaha, sen-o‘k sen tuzu yar(ı)qqa
Rozi q(ı)l qamug‘ barcha mo‘minlarqa.
(Iloho, sengina barchani yorlaqa,
Jumla mo‘minlarga rizqu ro‘z ber)

Dedi: uch yuz yil aroliq dasht aro
Tog‘-tog‘ qorlarni yog‘dirdi Iloh.

TILSHUNOSLIK

J.Rumiy

O'zbek tilida tarixan qo'llab kelingan yana bir teonim *Kirdikor* so'zidir. Bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning ikki tomrigida "yomon, yaramas ishlar, qilmish, hatti-harakat" deb izohlanadi, besh tomrigida Yaratguvchi, 2023-yilda nashr etilgan olti jildlik lug'atda ham yaratuvchi, vujudga keltiruvchi (xudoning sifati) ma'nosi ham beriladi. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati'da "Yaratguvchi", "Xudo" tarzida izohlanadi va quyidagi misralar beriladi:

Qiyomatda gunohin afv etarga,
Rasulingni shafi' et, kirdigoro.

Dedilarkim: kirdigoring kim durur,
Xoliq parvardigoring kim durur.

Bu teonimik leksema xalq orasida ommalashmagan, lekin uning fonetik varianti bo'lgan *kirdikor* salbiy ma'nosi bilan qo'llanadi. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida ham, adabiyotida ham qo'llanmaydi.

Mumtoz she'riyatda hech narsaga ehtiyoji yo'q, ehtiyojsiz tushunchalarini ifodalash bilan *beniyo*z so'zi uzual ma'noda Yaratguvchi nomini anglatib keladi. Teonim sifatida bu so'z Alisher Navoiy va Mashrab asarlari tilida qo'llanadi.

Qilmadim umrumda bir rakat namoz,

Sarbasar mahzi niyoz, ey Beniyoz.

Navoiy

Mahv etibsan Mashrabo devonani, ey Beniyoz,
Bir pari tal'at, shakar guftordin ayrilmisham.

Mashrab

Bu teonim so'zlashuv tiliga xos emas, shuningdek, zamonaviy adabiyot tilida ham qo'llanmaydi.

Yaratguvchi sifatlarini anglatuvchi arab tilidan o'zlashgan bir qator so'zlar borki, ular faqat yozma nutq shakliga xoslangan bo'lib, so'zlashuv tilida qo'llanmaydi. Ana shunday nom – teonimlardan biri *Jabbordir*.

Siyosatlarini aylar shohi Jabbor,
Mening sori durur har sirfakim bor.

Navoiy

Rahim (Alloh taoloning go'zal, muqaddas ismlaridan biri. Juda rahimli) va *karim* so'zlari ham Yaratguvchi sifatlaridan biri sifatida uzual teonim – nom bo'lib keladi.

Har kishikim ulusqa rahm etmas,
Anga rahm aylamas Rahimu Karim.

Navoiy

Rahmon sifati ham teonimik nom bo'lib, Yaratguvchi tushunchasini anglatadi. M.Umarxo'jayev lug'atida Alloh taoloning go'zal, muqaddas ismlaridan biri. O'ta mehribon ma'nosida izohlanadi.

Shayton yo'lidan ayla hazimat zinhor,
Qilg'il Rahmon sari azimat zinhor.

Alisher Navoiy

Ganch uchunmas, ul yashar Yazdon uchun,
Ranj uchunmas, ul bular Rahmon uchun.

J.Rumiy

Xushomad – makr ila Rahmon libosin kiygan shaytondir.
Sani mahkum aylagay u har qadamda malomatga.

O.Hakimov

Rahmon teonimi kamyob bo'lsa ham, har qalay, so'zlashuv uslubida qo'llanib turadi.

Qahhor so'zi mutlaq hokimlik lug'aviy ma'nosi bilan Yaratguvchi sifatlaridan biri bo'lib, sinkretik epitet sifatida uning nomini ham anglatadi va uzual teonim – nom bo'lib keladi. M.Umarxo'jayev lug'atida barcha mavjudot ustidan g'olibdir. Hamma narsa Uning qudrati ostidadir. Hech bir narsa Uning hukmidan tashqari chiqolmaydi. Barchani bo'ysundiruvchi tarzida izohlanadi.

Tamug', uchmog' yaratmish Hayy Jabbor,
Agar vahob erur, Qahhor ham bor.

Navoiy

“Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da *ma‘bud* tengri, but, sanam (sanam – toshdan, yog‘ochdan yoki metallardan inson qiyofasida yasalgan va ziynatlangan but) deb izohlanib, quyidagi misol beriladi:

Ya‘niki chu olamni yaratdi Ma‘bud,
Olam eliga qudrat ila berdi vujud.

Tasdiqlovchi misol tariqasida berilgan bu misralar Alisher Navoiy mukammal asarlar to‘plami yigirma tomligining o‘n oltinchi tomida bir vergul qo‘llangan holdagi farq bilan quyidagicha nashr etilgan:

Ya‘niki, chu olamni yaratdi Ma‘bud,
Olam eliga qudrat ila berdi vujud.

Ma‘buda – ayol obrazida tasavvur qilingan xudo. Teonimik ma‘noda hozirgi o‘zbek so‘zlashuv tilida qo‘llanmaydi, lekin unga jins ko‘rsatkichi qo‘shilgan holda, atoqli ot sifatida qizlarga Ma‘buda ismi, kamyob hodisa bo‘lsa ham, qo‘yiladi.

Alisher Navoiy asarlari tilida G‘aybdon so‘zi teonimik ma‘no bilan qo‘llanishi lug‘atda ko‘rsatilib, “Saddi Iskandariy” dostonidan quyidagi bayt tasdiqlovchi misol sifatida keltiriladi:

Chu ashyoda ko‘rsa kishi san‘atin,
Bilur seniki g‘aybdon qudratin.

“G‘aybdon qudrati” hozirgi o‘zbek so‘zlashuv tilida ham, yozma nutq shaklida ham qo‘llanmaydi, uning o‘rnida “Xudo qudrati”, “Olloh qudrati” kabi butunliklar faol qo‘llanadi.

Alisher Navoiy asarlari tilida Qoziyul-Hojot teonimi ham qo‘llanishi lug‘atda ko‘rsatiladi va u “hojatlarni chiqaruvchi, Xudo” tarzida izohlanadi.

Qazodin ulcha manga keldi, zikri hojat emas,
Bilur chu shiddati holimni qoziyul-hojot.

Bu murakkab strukturaga ega bo‘lgan teonim hozirgi o‘zbek so‘zlashuv tilida ham, yozma nutq shaklida ham qo‘llanmaydi. Mumtoz she‘riyatda ham juda kam ishlatilgan. Mashrab asarlari tilida ham, Abdulla Oripovning diniy mavzulardagi turkum she‘rlarida ham bu teonim qo‘llanishi kuzatilmaydi.

Alisher Navoiyning g‘azaliyotida ham, doston va boshqa asarlarida ham faol bo‘lmasa-da, Yazdon teonimi qo‘llangan. Uning “Arba‘in” va “Siroj ul-muslimin” nomli asarlarida Yazdon Yaratguvchi sifatida teonimik ma‘nosi bilan qo‘llanadi.

Har kimni xalos qilsa eldin Yazdon,
Ne tong anga umri abadiy bo‘lsa jahon.

Burun ul nimakim, farz etti Yazdon,
Erur oqilg‘a boli bo‘lgach imyon.

XULOSA

Hozirgi o‘zbek tilida arab tilidan Alloh (Olloh) kabi o‘zlashtirma teonimi so‘zlashuv uslubida faol qo‘llanadi, shuningdek, Rab, Haq, Rahmon, Rahim, Qahhor, Kirdikor, Beniyozi, Xoliq, Iloh, Haq kabi teonimlar so‘zlashuv uslubida deyarli qo‘llanmaydi, bu kabi teonimlar badiiy uslubda va diniy matnlarda faol. Hozirgi o‘zbek tilida teonimlar faolligini ko‘rsatuvchi omillardan biri ularning nutqdagi so‘z shaklida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, egalik qo‘shimchasi bilan odatda faol qo‘llanadigan teonim Olloh –Allohim tarzida qo‘llanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. II, том, – Тошкент: Фан, 1983.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. IV том, – Тошкент: Фан, 1985.
3. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи том. – Тошкент: Фан, 2000.
4. Умархўжа М.Э. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Olti jildlik. II jild. – G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
6. Sharafutdinova N. Undalma teonimlar tavsif sifatida. Analytical Journal of Education and Development. -11-116, 2023-yil. ISSN: 2181-2624.
7. Шарафутдинова Н. Бадий перифразалар ҳақида. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). -291-294, 2024-yil. <https://zenodo.org/records/11105699>.